


SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI




2021- yil yanvar-avgust oylarida Sirdaryo viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi - milliy daromadlarning oshishini ta'minlovchi hamda aholi uchun munosib turmush darajasini ta'minlashning hal qiluvchi omilidir. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligini, xodimlarning mehnat samaradorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtni tejalishiga olib keladi hamda bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.



2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xildagi xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan holda umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yilning yanvar-avgust oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **2632,8** mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi **661,2** mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **124,4** % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-avgust oylarida)

2632,8 mlrd.
so'm

124,4 %

661,2 mlrd.
so'mga

• Xizmatlar hajmi

• O'sish sur'ati

• Hajmning o'sishi

2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar

| Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-avgust oylarida) | Hajmi, mlrd. so'm | 2020- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da |
|---|----------------------|--|
| Xizmatlar - jami | 2632,8 | 124,4 |
| shu jumladan: | | |
| Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari | 155,8 | 126,8 |
| Moliyaviy xizmatlar | 838,2 | 134,0 |
| Transport xizmatlari | 409,7 | 115,9 |
| shu jumladan: avtotransport xizmatlari | 387,8 | 114,4 |
| Yashash va ovqatlanish xizmatlari | 59,7 | 112,3 |
| Savdo xizmatlari | 677,0 | 111,2 |
| Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar | 67,5 | 130,2 |
| Ta'lim sohasidagi xizmatlar | 97,6 | 153,1 |
| Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar | 48,6 | 136,0 |
| Ijara xizmatlari | 55,3 | 151,6 |
| Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar | 68,0 | 126,3 |
| Shaxsiy xizmatlar | 56,2 | 124,3 |
| Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar | 26,7 | 135,0 |
| Boshqa xizmatlar | 72,5 | 139,3 |

2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi

Nisbatan past ko'rsatkich

Nisbatan yuqori ko'rsatkich



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni moliyaviy xizmatlar egallaydi. 2021- yilning yanvar-avgust oylarida ularning ulushi 31,8 % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, yuqori sur'atlar savdo (25,7 %), transport xizmatlari (15,6 %), shuningdek, aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida (5,9 %) qayd etildi.

2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar

Me'morchilik sohasidagi xizmatlar hajmida biroz o'sish qayd etilib, ularning ulushi **1,0 %** ga yetdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-avgust oylarida moliyaviy xizmatlar umumiy hajmining **30,8 %** ini tashkil etgan. 2020- yilning shu davrida me'morchilik sohasidagi xizmatlarning ulushi ham eng kichik ko'rsatgichga ega bo'lgan – **0,9 %**.



Jamiyatning rivojlanishi hamda ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi bilan, xizmatlar sohasining muayyan rivojlanishi yuz beradi. Hozirda bu sohada ish bilan bandlikning oshishi, mehnatda texnik jihozlanish darajasining o'sishi va ilg'or texnologiyalarning joriy etilishi kuzatilmoqda.


2021- yilning yanvar-avgust oylarida yuqori o'sish savdo xizmatlarida (25,7 %), transport xizmatlarida (15,6 %) qayd etildi.

Buning sababi, korxonalar va tashkilotlar faoliyatini tiklash bilan bir qatorda koronavirus infeksiyasi (COVID-19) tarqalishining oldini olish uchun qo'yilgan cheklovlarni yumshatilishi bilan bog'liq.

2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari o'sish sur'atlarining taqqoslanishi, % da



Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-avgust oylarida moliyaviy xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan – **144,7 %**.

Boshqa xizmatlarda esa ushbu davrda pasayish kuzatilgan – **81,4 %**.


2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar

Transport xizmatlarining ko'rsatilgan eng yuqori ulush ko'rsatkichlari Guliston (**28,4 %**) va Yangiyer (**16,4 %**) shaharlariga hamda Sirdaryo (**18,0 %**) tumaniga to'g'ri keldi.

Eng past ulush ko'rsatkichi Shirin shahrida qayd etildi (**1,5 %**).

Transport xizmatlarining o'sish sur'ati, % da
(2021- yil yanvar-avgust oylarida)



2021- yilning yanvar-avgust oylarida transport xizmatlarining yuqori o'sishiga Sayxunobod (**24,3 %**), Sardoba (**17,9 %**) va Xovos (**17,8 %**) tumanlari, shuningdek, Shirin shahrida (**19,3 %**) ga erishildi.

Ushbu sohadagi xizmatlar hajmining biroz o'sish sur'ati Boyovut (**103,9 %**) tumanida qayd etildi.

2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar



Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2021- yilning yanvar-avgust oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi **25,7 %** ni tashkil etib, bu esa **677,0** mlrd. so'mga to'g'ri keldi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-avgust oylarida ularning hajmi **546,8** mlrd. so'mga yoki umumiy hajmning **27,7 %** iga to'g'ri kelgan.

Savdo xizmatlari



2020- y. yanvar-avgust




2021- y. yanvar-avgust

2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning o'tgan davrida chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rttdan uch qismini, aniqrog'i **67,2 %** ini tashkil etdi.

Savdo xizmatlari tarkibi
(2021- yil yanvar-avgust oylarida)




Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-avgust oylarida chakana savdo xizmatlari ulushi **66,1 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar

Hududlar kesimida savdo xizmatlarining tarkibi, % da
(2021- yilning yanvar-avgust oylarida)



- Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda
- Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar
- Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)

2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar

Boshqa hududlar bilan taqqoslaganda, chakana savdo xizmatlarining eng katta ulushi Yangiyer shahrida (**81,1 %**) va Sardoba (**83,5 %**), Boyovut (**82,5 %**), Xovos (**82,1 %**) tumanlarida kuzatilmoqda.



Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-avgust oylarida chakana savdo ulushi Yangier shahrida maksimal darajaga yetgan – **82,0 %**.

Shirin shahrida bu ko'rsatkich nisbatan ahamiyatsiz. Bu yerda u atigi **23,8 %** ni tashkil etdi. Biroq, bu shaharda ulgurji savdoda xizmatlar ulushi (avtomobil va mototsikl savdosidan tashqari) ancha katta – **74,7 %**.

Sardoba – **5,2 %** va Oqoltin – **7,5 %** tumanlari esa nisbatan kichik ulushga ega.



Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-avgust oylarida Shirin shahrida ulgurji savdo ulushi **75,2 %** ni tashkil etdi.

Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosidagi xizmatlarning nisbatan yuqori ulushi Oqoltin (**16,0 %**), Sardoba (**11,3 %**), Guliston (**10,3 %**), Xovos (**9,5 %**) tumanlarida qayd etildi.



Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-avgust oylarida ushbu xizmat turining salmoqli ulushi Oqoltin tumaniga to'g'ri kelgan – **11,0 %**.

2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar



Moliyaviy xizmatlar hajmi – moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar (2021- yil yanvar-avgust oylarida)

2021- yil yanvar-avgust oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **838,2** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-avgust oylarida ularning hajmi **607,8** mlrd. so'mga teng bo'lgan.



2021- yilning o'tgan davrida ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **31,8** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-avgust oylarida ularning ulushi **30,8** % ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmining **230,4** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

2021- yilning yanvar-avgust oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **34,0** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-avgust oylarida ularning o'sish sur'ati **144,7** % ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **94,0 %** ni tashkil etdi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning ulushi umumiy hajmning **4,1 %** ini tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-avgust oylari yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarining ulushi **1,9 %** oralig'ida qayd etildi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi
(2021- yil yanvar-avgust oylarida)



Sug'urta bo'yicha xizmatlar

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-avgust oylarida moliyaviy xizmatlar umumiy hajmining **95,0 %** ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan.

Sug'urta xizmatlarining ulushi **3,8 %** ga to'g'ri kelgan.

Moliyaviy va sug'urtalashga tegishli yordamchi xizmatlar – **1,2 %**.

2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar



Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekommunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

(2021- yilning yanvar-avgust oylarida)

2021- yilning yanvar-avgust oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **155,8** mlrd. so'm darajasida belgilandi.

2020- yilga nisbatan ushbu turdagi xizmatlarning o'sish sur'ati **126,8 %** ni tashkil etgan.


Taqqoslash uchun:

2020- yilning yanvar-avgust oylarida ushbu xizmat turi hajmi **120,9** mlrd. so'm yoki ko'rsatilgan bozor

xizmatlari umumiy hajmining **6,1 %** iga teng bo'lgan. O'sish sur'ati esa **114,0 %** ni tashkil etgan.

O'sish sur'ati

Hajmning o'sishi



Jami hajmdagi ulushi

Xizmatlar hajmi


2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar



2017-2021- yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblangan **ta'lim va fan sohasini** rivojlantirish – uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishdir.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar




2021- yilning yanvar-avgust oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **97,6 mlrd.** so'mga yetdi yoki bozor xizmatlari umumiy hajmining **3,7 %** ini tashkil etdi. 2020- yilning yanvar-avgustiga nisbatan o'sish sur'ati **153,1 %** ni tashkil etdi.

2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning yanvar-avgust oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlarning eng yuqori hajmi Sirdaryo (6,7 mlrd. so'm), Boyovut (3,1 mlrd. so'm), tumanlarida shuningdek, Guliston (73,5 mlrd. so'm) va Yangiyer (4,8 mlrd. so'm) shaharlarida qayd etildi.

Hududlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi, mlrd. so'm
(2021- yil yanvar-avgust oylarida)



Taqqoslash
uchun: 2020- yilning yanvar-avgust oylarida Guliston shahri bo'yicha ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 48,3 mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi – qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

47,0 mlrd.
so'm

59,7 mlrd.
so'm

Xizmatlar hajmi

2020- y.
yanvar-avgust

2021- y.
yanvar-avgust

83,5 %

112,3 %


O'sish sur'ati

2020- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi **12,7 mlrd. so'mga** ortgan.


2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi



2020- y. yanvar-avgust



2021- y. yanvar-avgust



Yashash bo'yicha
xizmatlar



Oziq-ovqat va ichimliklar
bilan ta'minlash
bo'yicha xizmatlar

2021- yil yanvar-avgust oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **87,6** % bilan ustunlik qildi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-avgust oylarida ushbu xizmat turlarining ulushi **90,1** % ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-avgust


Dastlabki ma'lumotlar



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari, shuningdek, stomatologiya, fizioterapiya va gomeopatiya poliklinikalari, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya, sanitariya va epidemiyaga qarshi profilaktika muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam hamda tibbiyot xizmatlari uchun ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymati hisoblanadi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

2021- y.
yanvar-avgust




Xizmatlar hajmi

Xizmatlarning jami hajmidagi ulushi

O'sish sur'ati

2020- y.
yanvar-avgust



33,2 mlrd. so'm

1,7 %

96,6 %

2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar

| Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (yanvar-avgust oylarida) | Hajmi, mlrd. so'm | O'sish sur'ati, % da | |
|--|----------------------|----------------------|--------------|
| | | 2021- y. | 2020- y. |
| Sirdaryo viloyati | 2632,8 | 124,4 | 103,4 |
| <i>shaharlar:</i> | | | |
| Guliston | 1197,4 | 128,1 | 117,4 |
| Shirin | 69,2 | 117,3 | 95,1 |
| Yangiyer | 203,0 | 119,5 | 95,1 |
| <i>tumanlar:</i> | | | |
| Boyovut | 147,2 | 124,4 | 84,4 |
| Guliston | 106,8 | 122,5 | 94,8 |
| Mirzaobod | 122,7 | 116,2 | 96,0 |
| Oqoltin | 77,4 | 122,0 | 91,9 |
| Sardoba | 95,2 | 118,0 | 86,6 |
| Sayxunobod | 122,2 | 114,8 | 55,7 |
| Sirdaryo | 358,3 | 124,1 | 93,8 |
| Xovos | 133,4 | 130,1 | 93,5 |


2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir tuman va viloyatlarining barcha iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da
(2021- yil yanvar-avgust oylarida)



2021- yil yanvar-avgust oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi eng katta ulushni Guliston shahri tashkil etdi – **45,5 %** (2020- yilning yanvar-avgust oylarida – **44,2 %**). Xizmat ko'rsatish sohasining eng past ko'rsatkichlari Shirin shahrida – **2,6 %** (2020- yilning yanvar-avgust oylarida – **2,8 %**) qayd etildi.

2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi



Hajmning
o'sishi




2021- yilning yanvar-avgust oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **3045,1** ming so'mga yetdi.

2020- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan o'sish sur'ati **122,3** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun:

2020- yilning yanvar-avgust oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 2320,1 ming so'mni tashkil etgan.

2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan o'sish sur'ati 101,4 % da qayd etilgan.



O'sish sur'ati

2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

2021- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

10315
birlik

2020- yilning mos davriga nisbatan ular sonining o'sishi

940
birlikga

2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati

110,0 %

Ularning umumiy sonidagi ulushi

63,5 %

2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar yuqori ulushni egallaydi (**50,1** %).

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi **9,3** % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi **5,8** % ga yetdi.

Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibidagi ulushi **2,1** % ga teng bo'ldi.

Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi **1,9** % ni tashkil etdi.

Savdo – 50,1

Boshqa turdagi xizmatlar – 30,8

Yashash va ovqatlanish – 9,3

Tashish va saqlash – 5,8

Axborot va aloqa – 2,1

Sog'liqni saqlash – 1,9


2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar



Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylanib, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi



2021- yil yanvar-avgust oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi **54,0 %** ni tashkil etdi.

2021- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2021- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissi **80,3 %** ga to'g'ri keldi.

